# Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2020- yil yanvar-oktabr)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13845,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 100,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,5 % ni tashkil etdi.




***B****– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C****-Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D****-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E****-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*** *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 26,7 % ga va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda - 22,3 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 6,0 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 24,2 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining ishlab chiqarish hajmi hamda fizik hajm indeksi







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 173,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan I-III-chorakalar,yanvar-oktabr, % da*







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Neft**




**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**




**Oltingugurt**




**Shag‘al**




**Qazib olish xizmatlari**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Texnik oltingugurt, *tonna.* | 1176,0 | 1008,0 | -168,0 |
| Shag‘al, *tonna.* | 28907,0 | 35711,0 | 6804,0 |
| Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog’liq burg’ilash xizmatlari, *mln.* *so’m.* | 182680,6 | 121974,5 | -60706,1 |

### Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13227,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,5 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*



O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019-yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 1,9 % (1,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 59,4 % (57,4 %) va quyi texnologiyalisi - 38,6 % (40,6 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi– 48,4 % (2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi–115,0 %), to’qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi–19,7 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi–16,2 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,3 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi –5,5 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,8 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2020- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 690,9 ming tonna avtomobil benzini (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 11,6 % ga o‘sgan), 17,9 ming tonna kalava ip (51,0 %), 76,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (12,1 %), 568,3 ming litr vino mahsulotlari (10,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, *% da*

**Dizel yoqilg‘isi**




**Avtomobil benzini**




**Mazut**




**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa**




**Aroq**




**Likyorlar**




**Uzum vinosi**




**Paxta tolasi**




**Paxta chigiti**




**Paxta linti**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Mazut,** *ming tonna* | 66,0 | 93,9 | 27,9 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan),** *tonna* | 16774,4 | 14539,2 | -2235,2 |
| **Paxta,tolasi,** *tonna.* | 53579,2 | 65872,6 | 12293,4 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** *tonna.* | 67843,8 | 76084,6 | 8240,8 |
| **Quyish uchun tayyor beton,***tonna.* | 10894,3 | 24179,4 | 13285,1 |
| **Avtomobil benzini,** *ming t.* | 619,3 | 690,9 | 71,6 |
| **Paxta chigiti,** *tonna.* | 94387,8 | 107422,8 | 13035,0 |
| **Quyish uchun tayyor beton,***tonna.* | 10894,3 | 24179,4 | 13285,1 |
| **Dizel yoqilg'isi,** *ming t.* | 586,8 | 523,3 | -63,5 |
| **Qurilish uchun g'ishtlar ,** *ming dona.* | 3256,0 | 2093,0 | -1163,0 |

Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan) yumshoq bug'doy va spelta uni 112,1% ga, avtomobil benzini 111,6 % ga, paxta tolasi 122,9 % ga, paxta chigiti 113,8 % ga, quyish uchun tayyor beton 2,2 marta ko'pga o'sishini kuzatish mumkin. Shuningdek dizel yoqilg'isi 89,2 % ni, qurilish uchun g'ishtlar 64,3 % ni, o'simlik yog'i (tozalangan) 86,7 % ni tashkil etib, islab chiqarish sur'atlari kamaygan.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 355,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (2,6 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 24,2 % ga oshganligi kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan I-III-chorakalar,yanvar-oktabr, % da*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 4,4 | 5,3 | 0,9 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 588 | 577,5 | -10,5 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan I-III-chorakalar,yanvar-oktabr % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar,** *mln.so'm* | 6947,7 | 7521,5 | 573,8 |
| **Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar,** *mln.so'm* | 283,0 | 419,7 | 136,7 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar -48,3 %, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 8,3 % ga oshganligi kuzatildi

### Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5116,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 37,0 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,1 % (2019- yil yanvar-oktabr oylarida 2,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to‘g‘ri kelib, 21,1 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 17,5 % ni, G’ijduvon tumani 10,2 % ni, Kogon tumani 10,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (105,7 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Olot (113,8 %), G’ijduvon (111,3 %), Romitan (110,8 %) hamda Qorovulbozor (110,3 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Olot | 116,3 | 2,3 | 113,8 |
| Buxoro | 338,0 | 6,6 | 100,3 |
| Vobkent | 260,6 | 5,1 | 106,2 |
| G’ijduvon | 521,7 | 10,2 | 111,3 |
| Kogon | 511,6 | 10,0 | 106,6 |
| Qorako’l | 282,0 | 5,5 | 100,2 |
| Qorovulbozor | 1077,4 | 21,1 | 110,3 |
| Peshko’ | 125,0 | 2,4 | 108,2 |
| Romitan | 209,1 | 4,1 | 110,8 |
| Jondor | 283,2 | 5,5 | 100,1 |
| Shofirkon | 232,5 | 4,5 | 100,4 |
| Buxoro sh. | 893,8 | 17,5 | 105,0 |
| Kogon sh. | 265,1 | 5,2 | 95,5 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to‘g‘ri kelib, 33,3 % ni, shuningdek, Kogon tumani 13,3 % ni, Buxoro shahri 10,8 % ni, G’ijduvon tumani 9,6 % hamda Buxoro tumani 6,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Olot (124,0 %), Peshko’ (118,2 %), Romitan (114,1 %) hamda G’ijduvon (113,7 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Olot | 63,0 | 2,0 | 124,0 |
| Buxoro | 193,4 | 6,1 | 100,4 |
| Vobkent | 151,6 | 4,8 | 107,4 |
| G’ijduvon | 301,2 | 9,6 | 113,7 |
| Kogon | 419,8 | 13,3 | 107,1 |
| Qorako’l | 87,8 | 2,8 | 100,4 |
| Qorovulbozor | 1049,5 | 33,3 | 110,3 |
| Peshko’ | 61,3 | 1,9 | 118,2 |
| Romitan | 116,4 | 3,7 | 114,1 |
| Jondor | 110,2 | 3,5 | 100,3 |
| Shofirkon | 107,6 | 3,4 | 96,3 |
| Buxoro sh. | 340,5 | 10,8 | 91,3 |
| Kogon sh. | 152,7 | 4,8 | 103,4 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to‘g‘ri kelib, 28,2 % ni, shuningdek, G’ijduvon tumani 11,2 % ni, Qorako’l tumani 9,9 % ni, Jondor tumani esa 8,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Buxoro shahrida (115,7 %), G’ijduvon (108,1 %) hamda Romitan tumanlarida (107,0 %) qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Olot | 53,3 | 2,7 | 103,6 |
| Buxoro | 144,6 | 7,4 | 100,1 |
| Vobkent | 109,0 | 5,6 | 104,5 |
| G'ijduvon | 220,5 | 11,2 | 108,1 |
| Kogon | 91,8 | 4,7 | 104,3 |
| Qorako'l | 194,2 | 9,9 | 100,2 |
| Qorovulbozor | 27,9 | 1,4 | 106,9 |
| Peshko' | 63,7 | 3,3 | 100,0 |
| Romitan | 92,7 | 4,7 | 107,0 |
| Jondor | 173,0 | 8,8 | 100,0 |
| Shofirkon | 124,9 | 6,4 | 104,1 |
| Buxoro sh. | 553,3 | 28,2 | 115,7 |
| Kogon sh. | 112,4 | 5,7 | 86,6 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 860,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

## Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

**Buxoro viloyati** *

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 13845,1 | 100,0 | 100,2 |

**Olot**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 323,6 | 2,3 | 104,1 |

**Buxoro**

| Млрд. сум | Ulushi % da | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| 534,6 | 3,9 | 107,1 |

**Vobkent**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 316,4 | 2,3 | 111,4 |

**G’ijduvon**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 913,1 | 6,6 | 115,5 |

**Kogon**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 628,1 | 4,5 | 107,2 |

**Qorako’l**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 416,7 | 3,0 | 105,6 |

**Qorovulbozor**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 6874,8 | 49,7 | 106,6 |

**Peshko’**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 246,4 | 1,8 | 101,2 |

**Romitan**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 398,3 | 2,9 | 108,4 |

**Jondor**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 526,0 | 3,8 | 103,5 |

**Shofirkon**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 403,4 | 2,9 | 107,0 |

**Buxoro sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1663,4 | 12,0 | 103,0 |

**Kogon sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 600,3 | 4,3 | 106,8 |

## Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o’sishini, G’ijduvon (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 115,5 %), Vobkent (111,4 %), Romitan (108,4 %) hamda Kogon (107,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining sezilarli darajada o’sganligi bilan izohlashimiz mumkin.

| Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da* | Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|



**Buxoro viloyati jami sanoat**
**mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat  sanoat ishlab chiqarish hajmining 49,7 % i), Buxoro shahri (12,0 %) hamda G’ijduvon (6,6 %), Kogon (4,5 %), tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Peshko’ (1,8 %), Vobkent (2,3%) hamda Olot (2,3 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (373628,4 ming so‘m), Kogon shahar (9793,6 ming so‘m) va Kogon tumaniga (8001,9 ming so‘m) o‘rtacha Viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (7167,0 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi  2648,5 ming so‘m bo‘lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 58551,7  ming so‘mni,Kogon tumanida – 6517,6  ming so‘mni, Kogon shahrida – 4325,0 ming so‘mni, Buxoro shahrida- 3186,5 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so‘m*

| Hudud | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Buxoro viloyati | 7167,0 | 2648,5 |
| Olot | 3258,7 | 1171,2 |
| Peshko’ | 2000,2 | 1014,7 |
| Buxoro | 3199,2 | 2022,6 |
| Romitan | 2802,7 | 1471,4 |
| Vobkent | 2258,4 | 1860,2 |
| Jondor | 3007,2 | 1619,3 |
| G’ijduvon | 2996,8 | 1712,2 |
| Shofirkon | 2271,2 | 1309,0 |
| Kogon | 8001,9 | 6517,6 |
| Buxoro sh. | 5930,3 | 3186,5 |
| Qorako’l | 2539,6 | 1718,5 |
| Kogon sh. | 9793,6 | 4325,0 |
| Qorovulbozor | 373628,4 | 58551,7 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 514,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kogon (98,4 %), Shofirkon (87,3 %), Buxoro (68,4 %), hamda Romitan (61,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,1 %), Kogon sh. (47,0 %) va Olot (48,7 %) hamda G’ijduvon (49,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2020- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 4243 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1204 tasi (faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 28,4 % i) Buxoro shahriga, 543 tasi (12,8 %) G’ijduvon tumaniga, 343 tasi (8,1%) Buxoro tumaniga, 325 tasi (7,7 %) Kogon tumaniga, 291 tasi (6,9 %) Jondor tumaniga to‘gri kelmoqda.

| Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda* | Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda* |
|---|---|




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 926 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 172 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,6 %) Buxoro shahriga, 140 tasi (15,1 %) G’ijduvon tumanida, 73 tasi (7,9 %) Peshko’ tumanida, 72 tasi (7,8 %) Kogon tumanida tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi bo’limi**
*Tel.: (865) 220-83-06*